

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH IJTIMOIY DAVLATNING MUHIM VAZIFASI SIFATIDA

Dilfuza Jo'raqulovna MAHKAMOVA

mustaqil tadqiqotchi

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi,

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy davlat hamda nogironlik tushunchasi, uning tarixi, dunyoda va O'zbekistondagi nogironligi bo'lgan shaxslar statistikasi, nogironlikning belgilanishi tartibi, ularga nisbatan ijtimoiy yordam va imtiyoz turlari, O'zbekiston – 2030" strategiyasida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun belgilangan chora-tadbirlar xususida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy davlat, hukumat, nogironlik, ratifikatsiya, protez-ortopediya buyumlari, signalizator, rehabilitatsiya, to'siqsiz turizm.

ПОДДЕРЖКА ИНВАЛИДОВ – ВАЖНАЯ ФУНКЦИЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

Дильфуза Журакуловна МАХКАМОВА

Независимый исследователь

Республиканский центр духовности и просветительства,

Институт социальных и духовных исследований

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье описано социальное состояние и понятие инвалидности, его история, статистика людей с ограниченными возможностями в мире и в Узбекистане, порядок определения инвалидности, виды социальной помощи и льгот для них, меры, определенные для людей с ограниченными возможностями в Стратегии "Узбекистан – 2030".

Ключевые слова: государство всеобщего благосостояния, государство, инвалидность, ратификация, протезно-ортопедическая продукция, тревога, реабилитация, безбарьерный туризм.

Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganganimizda "ijtimoiy davlat" tushunchasi shunga o'xshash nomlarda ko'plab uchrashiga guvoh bo'lamiz. Masalan, IX–X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan "ijtimoiy davlat" tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi. Shunga o'xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir” [3], deya ta’rif bergan edi. Nazarimizda, buyuk bobolarimiz orzu qilgan va o‘z asarlarida keltirgan “fozil shahar” ham aynan shu “ijtimoiy davlat”dir.

Ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta’minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalani, sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a’zolari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi.

Nogironlik uzoq tarixga ega bo‘lgani uchun ham qadim zamonlardan bu masala jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelgan va uning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Nogironligi bo‘lganlarga g‘amxo‘rlik, nogironlikning oldini olish, uni davolash masalalari har bir xalqning mentalitetidan, davr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli davrlarda turlicha xarakter kasb etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar og‘ir turmush sharoitida yashaganligi uchun bunday sharoitda faqat tirik qolganlarga yashab keta olganlar. Hali ularda nogironligi bo‘lgan insonlarga nisbatan hech qanday munosabat shakllanmagan. Imkoniyati cheklanganlarga nisbatan dastlabki munosabatlar diniy mifologik qarashlar zaminida shakllangan. Bu tabiiy hol edi, chunki afsonaviy dunyoqarash bilan falsafiy tafakkur o‘rtasidagi qator umumiylik mavjud va bu antik davr mutafakkirlarining qarashlarida namoyon bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda Yevropadan farqli ravishda islom dini aqidalari asosida nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan g‘amxo‘rlik munosabati ma’naviy qadriyatlarimizning tarkibiy va ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

Hozirgi kunda jahon miqyosida nogironlar masalasiga mutlaqo yangicha yondashuv va qarashlar asosida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, inklyuziv ta’lim masalasi xorijiy davlatlarda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Pedagoglar bilan bir qatorda, Rossiya sotsiologlari va Yevropa

politologlari ham bu masalaga jiddiy qiziqish bilan qaramoqdalar. Ular o'z tadqiqotlarida inklyuziv ta'limning nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashtiruvchi eng muhim omil ekanligini ko'rsatishga harakat qilganlar.

Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs *nogiron* hisoblanadi.

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o'z-o'ziga xizmat qilish, yurish, yo'lini topa olish, muloqot qilish, o'z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to'la yohud qisman yo'qotganligida ifodalanadi.

Shaxsni nogiron deb topish tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi. Nogironlik yoshdan qat'i nazar belgilanadi.

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar turli sohalarida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Hukumat vaziyatni yaxshilash choralari ko'rmoqda. Jumladan, hukumat tomonidan 2021-yilda ratifikatsiya qilgan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish choralari ko'rilmoqda.

Jahon banki mamlakatda nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalash (ularning inklyuziyasini ta'minlash) bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan davlat siyosati chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan tahliliy hisobot tayyorladi.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining bir milliarddan ortig'i yoki 15 foizi nogironlikning biron bir shakliga ega [5]. Agar ushbu foiz qiymati O'zbekistonga taxminan tatbiq qilinadigan bo'lsa, aslida O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy soni 3–5 million kishini tashkil qilishi mumkinligini taxmin qilish mumkin.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi telegram kanalida keltirilishicha [4], 2025-yil I choragi yakuniga ko'ra, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar soni 1 031 609 nafarni yoki O'zbekiston aholisining 2,7 foizini tashkil etadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning 173 285 nafari 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni, 94 722 nafari – I guruh, 695 372 nafari – II guruh, 67 006 nafari – III guruh nogironligini tashkil qiladi.

Bular orasida 0–3 yoshdagi 22,5 ming nogironligi bo'lgan bolalar mavjud. Har yili o'rtacha 2–2,5 ming (10 foiz) bola turli xil tug'ma nuqsonlar (tayanch-harakat, daun sindromi, zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi) bilan tug'iladi.

Nogironligi bo'lganlarning 465 645 nafari yoki 45 % ayollar, 565 964 nafari yoki 55 % erkaklar hisoblanadi. Ularning yoshi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 30 yoshdan pensiya yoshigacha bo'lganlarda (493 879 nafar) belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Samarqand (110 189), Qashqadaryo (108 041), Farg'ona (94 395), Andijon (88 470) va Surxondaryo (88 470) viloyatlarida, eng past ko'rsatkich esa Sirdaryo (38 123), Jizzax (44 496), Navoiy (48 172) va Buxoro (60 446) viloyatlarida kuzatilgan.

2021-yilda “Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida” yangi qonun kuchga kirdi. Ushbu qonun loyihasining ko'plab qoidalari parlament tomonidan qabul qilingan qonunning yakuniy matniga kiritilgan. Bu ayniqsa muhim edi, chunki O'zbekistonda, shuningdek, butun dunyoda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik jamiyati tashkilot (FJT)lari tegishli huquqlar sohasida yuqori ixtisoslashgan bilimlarga ega va ularning a'zolari kundalik hayotlarida ushbu huquqlardan foydalanishda to'siqlarga duch keladigan odamlardir.

2021-yil apreldan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslar nogironlik nafaqalari uchun onlayn tarzda murojaat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, nogironlik nafaqasini olgan shaxslar ishsizlik nafaqasini olish huquqiga ega emaslar. Shu bilan birga, mamlakatda nogironlik nafaqalari miqdori juda oz.

Nogironlikni belgilash to'g'risidagi qaror klinik, psixologik, ijtimoiy-maishiy va kasbiy omillar majmuini baholashda asoslanadi. Bu holda quyidagilar hisobga olinadi: kasallanishning xarakteri, funksiyaning buzilish darajasi, davolashning, rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligi, kompensatsiyalab turuvchi mexanizmlarning holati, klinik va mehnat prognozi, ijtimoiy moslashuv

imkoniyati, turli ijtimoiy yordam turlariga muhtojlik, shaxsiyat aniqlanishlari, mehnatning aniq sharoitlari va uning mazmuni, kasb tayyorgarligi va boshqalar.

Shaxs nogiron deb e'tirof etilganida, mehnatga layoqatlilikning buzilishi darajasidan kelib chiqqan holda nogironlikning birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlari belgilanadi.

I guruh nogironligi – mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo'qotgan va o'zgalarning yordamiga, parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga belgilanadi;

II guruh nogironligi – mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin o'zgalar yordamiga, parvarishiga muhtoj bo'lmagan shaxslarga belgilanadi;

III guruh nogironligi – mehnat qilish qobiliyatini qisman yo'qotgan shaxslarga belgilanadi.

Nogironlarga quyidagicha ijtimoiy yordam ko'rsatiladi:

pul to'lovlari (pensiylar, nafaqalar, bir yo'la beriladigan to'lovlar) shaklida; texnika vositalari hamda boshqa vositalar, shu jumladan avtomobillar, o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya buyumlari, maxsus xarfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytirgich apparatlar va signalizatorlar bilan ta'minlash;

tibbiy, ijtimoiy va kasb jihatidan tiklash hamda maishiy xizmat, transport xizmati ko'rsatish yo'li bilan beriladi.

Xodimlarining soni yigirma kishidan ortiq bo'lgan korxonalarda, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida uch foizi miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi.

Ish beruvchi belgilangan minimal ish joylari hisobidan ish joylariga ishga joylashtirish tartibida mahalliy mehnat organi tomonidan yo'llangan nogironlarni ishga qabul qilishi shart.

TMEKning nogironlarga to'liqsiz ish vaqti rejimi o'rnatish, ularning vazifasini kamaytirish va mehnatning boshqa shartlari haqidagi tavsiyalarini bajarish ish beruvchi uchun majburiydir.

I va II guruh nogironlariga mehnatga haq to'lash kamaytirilmagan holda ish vaqtining haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi.

I va II guruh nogironlariga o'ttiz kalendar kundan kam bo'lmagan muddat bilan yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi.

Nogironlarni tungi vaqtdagi ishlarga, shuningdek ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga ularning roziligi bilangina, basharti ular uchun bunday ishlar tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya texnik vositalari va kreslo-aravachalar bilan bepul ta'minlanish huquqiga ega bo'lgan imtiyozli shaxslar ro'yxatiga kiritilgan.

Muhtoj nogironlar reabilitatsiya texnik vositalarini o'z mablag'lari hisobiga sotib olgan taqdirda, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kompensatsiya to'lanadi.

I va II guruh nogironlari uy-joy olinishida imtiyozlarga ega.

Nogironlarni qayta ko'rikdan o'tkazish, shu jumladan kasb bo'yicha mehnatga layoqatni yo'qotganlik foizlar darajasini aniqlash uchun qayta tibbiy tekshirish olti oyda, bir yoki ikki yil muddatida bir marta o'tkaziladi.

Nogironlik guruhi quyidagi holatlarda muddatsiz belgilanadi:

60 yoshdan katta nogiron erkaklarga va 55 yoshdan katta nogiron ayollarga.

Keyingi 5 yil va undan ortiq yil mobaynida nogironlikning I yoki II guruhi belgilangan, 5 yil mobaynida Davolash profilaktika muassasasi – poliklinikada to'liq dispanser ko'rigidan o'tgan, reabilitatsiya dasturlari bajarilgan, shuningdek reabilitatsiyaning barcha turlari istiqbolsiz bo'lgan, tiklab bo'lmaydigan anatomik-funksional buzilishlar yoki zo'rayuvchi kasalliklarga duchor bo'lgan nogironlarga.

Bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliq solishdan ozod etiladi;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi;

Faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun – bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi o'rnatilgan.

I va II guruh nogironlariga oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ravishda ikki foizli kvota ajratilgan.

Ish beruvchi belgilangan minimal ish joylari hisobidan ish joylariga ishga joylashtirish tartibida mahalliy mehnat organi tomonidan yo'llangan nogironlarni ishga qabul qilishi shart.

TMEKning nogironlarga to'liqsiz ish vaqti rejimi o'rnatish, ularning vazifasini kamaytirish va mehnatning boshqa shartlari haqidagi tavsiyalarini bajarish ish beruvchi uchun majburiydir. I va II guruh nogironlariga mehnatga haq to'lash kamaytirilmagan holda ish vaqtining haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi. I va II guruh nogironlariga o'ttiz kalendar kundan kam bo'lmagan muddat bilan yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi.

Prezidentimizning 2023-yil 27-dekabrdagi "O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 410-son qarori [2] qabul qilindi. Hujjat bilan ushbu yo'nalishda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yildi:

- o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni aniqlash tartib-taomillarini optimallashtirish va raqamlashtirish;

- ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etish;
- o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning salomatligi va turmush sifatini yaxshilash orqali ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash;
- ijtimoiy himoya tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini joriy etish.

O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar quyidagi mahsulotlar bilan bepul ta’minlanadi (1 kishi uchun bir oyda):

Un (oliy nav) – 3 kg;

Guruch – 1 kg;

Grechka yormasi – 500 gr;

Makaron mahsulotlari – 500 gr;

Mol go‘шти (suyaksiz) – 1 kg;

Xonaki parranda go‘шти – 1 kg;

Sariyog‘ – 200 gr;

Tuxum – 15 dona

Qand-shakar – 1 kg;

Kungaboqar yog‘i – 1 l;

Ko‘k yoki qora choy – 200 gr;

Atirsovun – 100 gr;

Kirsovun (65%) – 200 gr;

Kir yuvish poroshogi – 150 gr;

Katta yoshdagilar uchun taglik gazmol – 8 dona.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni [1] bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 23-maqsadi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish” bo‘lib, bunda:

- nogironligi bo‘lgan muhtoj shaxslarning sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta’minlash darajasini 100 foizga yetkazish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarni munosib ish bilan ta’minlash orqali ular bandligini 2 barobarga oshirish;
- nogironligi bo‘lgan muhtoj shaxslarni reabilitatsiya xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mavjud infratuzilma holatini baholash tizimini joriy qilib, qulay va maqbul muhitni yaratish;
- “To‘siqsiz turizm” dasturi doirasida har bir viloyatdan yiliga 1 000 nafardan nogironligi bo‘lgan shaxslarning Samarqand, Buxoro va Xivaga bepul sayohatlarini tashkil qilish belgilangan.

Bu ezgu sa’y-harakatlar ushbu soha davlatimiz tomonidan doimiy e’tiborda ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida keltirib o‘tilgan misollar so‘nggi yillarda yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu xayrli ishlar “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat”, degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 410-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6725077>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022-yil. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
4. Ijtimoiy himoya milliy agentligi nogironlikni belgilashga doir muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. https://t.me/ijtimoiyhimoya_agentligi/3484
5. <https://apps.who.int/iris/handle/10665/44575>> Nogironlik to‘g‘risida umumjahon ma’ruzi, JSST < oxirgi marta ko‘rilishi 2021 yil, 3 noyabr.